

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SO'G'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB OLISH.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	



XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI

Safaraliyev Suyun Sheraliyevich

mustaqil izlanuvchi

Email: Suyunbeksafaraliyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmatlar sohasini rivojlantirishda tijorat banklari faoliyatining o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Hozirgi kunda jahonning ko'plab mamlakatlarida xalqaro amaliyotga ko'ra, investitsion banklar iqtisodiyotning real sektorini qimmatli qog'ozlar bozori vositalari orqali moliyalashtirishning asosiy instituti, moliyaviy vositachi, investor-dan korporatsiyaga kapital oqib o'tishini ta'minlovchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqola mamlakatimizda tijorat banklarining investitsion faoliyati ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, investitsiya, kredit institutlari, faol investitsiya, fond portfeli.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность коммерческих банков в развитии сектора услуг. В настоящее время, согласно международной практике во многих странах мира, инвестиционные банки выступают в качестве основного института финансирования реального сектора экономики посредством фондового рынка, в качестве финансового посредника, обеспечивающего приток капитала от инвестора к корпорации. В данной статье раскрывается важность инвестиционной деятельности коммерческих банков в нашей стране.

Ключевые слова: государственный бюджет, инвестиции, кредитные учреждения, активные инвестиции, инвестиционный портфель.

Abstract: This article examines the role of commercial banks in the development of the service sector. Currently, in accordance with international practice in many countries, investment banks act as the primary institution for financing the real sector of the economy through the stock market, acting as a financial intermediary, facilitating the flow of capital from investors to corporations. This article explores the importance of commercial banks' investment activities in our country.

Key words: state budget, investments, credit institutions, active investments, investment portfolio.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida 2018-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy moliyalashtirish manbaining 53,0 foizini korxonalar va aholining o'z mablag'lari tashkil etgan bo'lsa, jami investitsiyalarning qolgan 47,0 foizi jalb qilingan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi. 2017-yilga nisbatan korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi 4,0 foiz punktga o'sdi. Davlat budjeti mablag'larining jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,5 foizni tashkil etib, 2017-yildagiga nisbatan 1,1 foizga, bank sohasi va iqtisodiyotning real sektori boshqa qarz mablag'lari ulushi 11,1 foizni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 0,7 foizga kamaydi. [1] Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning: "Bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchlilikini mustahkamlash, istiqbolli investitsion loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish", — deb ta'kidlagani ushbu soha faoliyatiga qaratilgan e'tibor kuchaytirilganligidan dalolatdir. [2]

Chunki hozirgi kunda jahonning ko'plab mamlakatlari bank tizimida turli tashqi va ichki salbiy omillar natijasida kredit hamda valyuta risklari oshib, kredit institutlari moliyaviy holatining yomonlashishiga, ularning kredit portfelida muammoli deya tasniflanadigan kreditlar hajmining oshishiga olib kelgan bir vaqtda, respublikamizda bunday salbiy holatlarning oldi olinib, bank tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishi ta'minlanmoqda.

Bunga samarali pul-kredit siyosati va ta'sirchan bank nazoratining amalga oshirilishi, xorijiy kapitalni jalb qilishda ehtiyotkorona siyosatning yuritilishi, milliy valyuta barqarorligining ta'minlanishi, banklar resurs bazasini shakllantirishda asosan ichki manbalarga tayanish, kredit amaliyotlarini o'tkazishdagi tamoyillar va qoidalarga qat'iy rioya qilish hamda risklarni boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llash orqali erishilgan bo'lib, soha rivojlanishi hamda faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Banklarning korxonalar rivojlanishida ularning kapital mablag'larini ko'paytirishdagi o'rni va ahamiyati bevosita kreditlash masalalari va bu siyosatning qanday amalga oshirilishiga bog'liq. Respublikamizda aholi moddiy farovonligini ta'minlashda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning o'rni katta. Sababi,



aholini ish bilan ta'minlashni yanada oshirish va mamlakatimizda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishini rag'batlantirishda, ichki talab barqarorligini ta'minlashda kreditlash siyosati lokomotiv vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining investitsiya faoliyati, kredit siyosati hamda foydani shakllantirish va taqsimlash masalalari iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar banklarning investitsiya jarayonlaridagi vositachilik funksiyasi, moliyaviy barqarorligi, risklarni boshqarish tizimi hamda moliyaviy natijalarni samarali shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Sh.Z. Abdullayeva bank faoliyatida risklarni boshqarish kreditlash samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, kredit risklarini chuqur baholash va ularni samarali boshqarish bank aktivlari sifati hamda investitsiya resurslarining xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli banklarda kredit siyosatini ishlab chiqishda risklarni baholashning zamonaviy usullaridan foydalanish investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi (Abdullayeva, 2002).

Yu. Abdullayev, T. Qoraliev, Sh. Toshmurodov va Sh.Z. Abdullayeva banklarning iqtisodiyotdagi o'rni faqat kredit resurslarini taqsimlash bilangina cheklanmasligini, balki moliyaviy resurslarning samarali aylanishini tashkil etuvchi muhim institut sifatida namoyon bo'lishini qayd etadilar. Mualliflarning fikricha, tijorat banklari tomonidan investitsiya resurslarini oqilona joylashtirish ishlab chiqarishni kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy omillaridan biridir. Shu bilan birga, banklarning investitsiya faoliyati aktivlar sifati, likvidlik va daromadlilik ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liqdir (Abdullayev va boshq., 2010).

B.T. Berdiyarov tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadlilikini tadqiq etar ekan, bank foydasining o'sishi investitsiya va kredit portfelining sifatli shakllantirilishiga bevosita bog'liqligini asoslaydi. Muallifning ta'kidlashicha, bank aktivlarini samarali boshqarish, daromad keltiruvchi aktivlar ulushini oshirish hamda risk va rentabellik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash banklarning moliyaviy natijalarini yaxshilashning asosiy omillaridan hisoblanadi. Shuningdek, investitsiya faoliyatini baholashda aktivlarning daromadlilik ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish zarurligi qayd etiladi (Berdiyarov, 2002).

A.V. Vaxabov, A.K. Ibragimov va N.K. Rizayev tijorat banklarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish bank faoliyatining shaffofligini oshirish, moliyaviy natijalarni xalqaro talablarga muvofiq aks ettirish hamda investorlarga ishonchli axborot taqdim etish imkonini berishini asoslab berganlar. Mualliflarning fikricha, xalqaro standartlarning joriy etilishi banklarning investitsion jozibadorligini oshirish, tashqi moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi (Vaxabov va boshq., 2011).

Diana Mak Noton, Donald J. Karlson, Klayton Tausend Ditt va hammualliflar bank moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish metodologiyasini keng yoritib, bank faoliyati samaradorligini baholashda aktivlar sifati, kapital yetariligi, likvidlik, daromadlilik va risk ko'rsatkichlarini kompleks baholash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, moliyaviy hisobotlarni chuqur tahlil qilish bank investitsiya siyosatining samaradorligini aniqlash, resurslardan foydalanish natijadorligini baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli axborot bazasini yaratadi (Mak Noton va boshq., 2002).

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda tijorat banklarining kreditlash siyosati, risklarni boshqarish, aktivlar daromadliliigi, moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish hamda investitsiya faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Biroq banklarning investitsiya faoliyatini foydani shakllantirish va taqsimlash mexanizmlari bilan kompleks bog'lagan holda, ayniqsa zamonaviy bank amaliyoti va milliy iqtisodiyot sharoitida baholash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, tijorat banklarining investitsiya faoliyati hamda foydani boshqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks yondashuv asosida ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, tijorat banklari faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar va moliyaviy hisobotlarni o'rganish orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy, tizimli va iqtisodiy tahlil usullari yordamida baholandi. Natijalarni umumlashtirish hamda ilmiy axborotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan yordamchi instrument sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keng ma'noda investitsiya deganda turli shakllarga, moddiy ishlab chiqarish va moliyaviy aktivlarga bo'sh

turgan pul mablag'larining kapital qo'yilmasi tushuniladi. Investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shunday ekan, milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish faol investitsiya siyosatini yuritishni talab qiladi. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi. Bank sektorining asosiy vazifalari pul mablag'larini jamg'arish va ularni kredit hamda investitsiyalarga aylantirish, omonatchilar va banklarning boshqa kreditorlari oldida ishonchni mustahkamlash, ularning manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya naqadar keng ma'noli tushuncha ekanligini bilishimiz mumkin. Shuning uchun investitsiya tushunchasiga ta'rif berayotganda uning barcha jabhalarini hisobga olmog'imiz lozim.

Shunday qilib, "investitsiya" deganda kelgusida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va boshqa sohalariga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi. Boshqacha aytganda, investitsiyalar — mulkchilikning har xil ko'rinishlaridagi moddiy, moliyaviy va nomoddiy boyliklarni iqtisodiy-ijtimoiy daromad olish maqsadida muomalaga kiritishdir.


Tijorat banklarining investitsiya faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishiga yaqindan yordam berayotgan ushbu faoliyatning amaliy natijalari bugun har jabhada namoyondir.

Tijorat banklari ayni paytda mamlakatimizda investitsiya faoliyatini olib borishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning rivojlangan infratuzilmasi O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni faol qo'llab-quvvatlayotgan moliya va sanoat sohalarini rivojlantirishga yordam bermoqda.

Banklarning investitsiya siyosati qimmatli qog'ozlar va ulushlarga investitsiyalarni amalga oshirish orqali faoliyat ko'lamini kengaytirish, qo'shimcha mijozlarni jalb etish bilan birga, asosiy mezon sifatida fond portfeli daromadliligining ta'minlanishini ko'zda tutadi.

Banklarning ushbu faoliyatini kuzatar ekanmiz, uning o'z investitsiyalari bilan O'zbekistonda ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biriga aylanayotganligining shohidi bo'lishimiz mumkin.

Tijorat banklari doirasida foydaning shakllanishi va undan foydalanish jarayonlarini tadqiq etayotgan bir vaqtda, mantiqqa rioya qilgan holda, tijorat banklari yordamida realizatsiya qilingan milliy daromad bir qismining taqsimlanishi muammosiga duch kelamiz va uni o'zimizning imkoniyatimiz darajasida hal qilishimiz kerak, deb o'ylaymiz. Bizning fikrimizcha, umumiy rejada foydani taqsimlash muammolarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin (1-rasm):



1-rasm. Umumiy rejada foydani taqsimlash muammolari¹

Yuqoridagi rasmda umumiy rejada foydani taqsimlash muammolarini shartli ravishda ikki guruhga ajratdik. Birinchi guruh davlat bilan tijorat banklari o'rtasida vujudga keladigan masalalar bo'lib, ular tijorat banklari daromadlari yoki foydasini soliqqa tortish bilan bog'liq vazifalarni hamda birlamchi taqsimotni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi guruhga esa tijorat bankining ixtiyorida qoladigan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra foydalaniladigan daromadlari yoki foydasini ikkilamchi taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan masalalar kiradi. [1]

Olingan daromad yoki foydaning davlat va tijorat banklari o'rtasida oqilona (optimal) taqsimlanishi tijorat banklarining rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Buni isbotlab berishga sira ham hojat yo'q. Shuning uchun ham bozor munosabatlari tizimida tijorat banklarining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi

1 Manba: muallif ishlanmasi.



ular daromadi yoki foydasini soliqqa tortish tizimining ta'siriga bevosita bog'liqdir.

Tijorat banklari ixtiyorida qoladigan daromad (foyda)ni taqsimlash har bir tijorat bankiga tegishli bo'lgan uning ichki masalasidir. [2] Shu ma'noda biz bu masalani hozirgi sharoitda ma'lum ma'noda ikkinchi darajali masala deb qarashimiz mumkin. Bir vaqtning o'zida bu masala o'z ahamiyatini hozirgi sharoitda bir oz darajada yo'qotgan bo'lishiga qaramasdan, bizning nazarimizda, hanuzgacha o'zining oqilona yechimini kutayotgan masalalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tishimiz zarur.

Hozirgi vaqtda tijorat banklari bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash zarur, deb hisoblaymiz. Shu boisdan ham tijorat banklari daromadini birlamchi taqsimlash masalalariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda, bizning fikrimizcha, soliqqa tortishning umumiy uslubi (metodologik) masalalariga e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz.

Soliqqa tortishning umumiy uslubi (metodologik) xarakterdagi masalalarini ko'rib chiqib, ongli ravishda muammoning bir necha yo'nalishlariga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Ular quyidagilardan iborat:

- soliqlarning iqtisodiy tabiati yoki mohiyati;
- soliqlarning turli boshqa to'lovlar va majburiy ajratmalardan afzalliklarini aniqlab beruvchi xarakterli belgilari;
- soliqlarning olinishi (undirilishi) mexanizmi.

Soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish tamoyillari va uslublari, ularning roli va turi odatda jamiyatning iqtisodiy tuzumi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham iqtisodiyot fanining klassiklari jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy muammolarini tadqiq qilish jarayonida soliqlarning mohiyati va ularning iqtisodiy tabiati masalalariga alohida e'tibor berganlar. [3]

Tijorat banklari orasida ham iqtisodiyotning barcha subyektlari singari soliqqa tortishning yagona tartibi qo'llanilishi kerak. Ammo biz bundan barcha tijorat banklariga nisbatan bir xil soliq turlari va stavkalari qo'llanilishi kerak ekan-da, degan xulosa chiqarishimiz maqsadga muvofiq emas.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir davlatda soliq tizimi, jumladan, soliqqa tortish mexanizmi hukumatning tegishli qonunlari va normativ hujjatlari yordamida tartibga solib turiladi. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar boshlangan paytdan boshlab hozirgacha soliqqa tortish tizimi ancha o'zgarganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Banklarning budjetga to'lovlarni amalga oshirish va ularning hisobini yuritishning amaliy jihatdan o'rganilishi natijalariga tayanib, quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

- banklar nafaqat iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va moliyaviy hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish, balki tijorat muassasalari sifatida yirik soliq to'lovchilardan hisoblanadi;
- banklar intizomli soliq to'lovchilar hisoblanadi. Banklar joriy oy uchun to'lanadigan soliqlarni oldindan to'lab berishlari natijasida davlat budjetiga to'laydigan umumbelgilangan soliqlar, ajratmalar va majburiy to'lovlardan muddati o'tgan qarzlari mavjud emas;
- banklarda buxgalteriya hisobi bo'yicha kunlik balans tuzilishi davlat budjetiga to'laydigan soliqlar, majburiy to'lovlar hamda ajratmalarni to'lash ustidan samarali nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Tijorat banklari davlat budjetiga to'laydigan soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha yirik hamda intizomli soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг 2017 йилга мўлжалланган монетар сиёсат асосий йўналишлари - <http://www.cbu.uz>
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.
3. Абдуллаева Ш.З. “Банк рисклари ва кредитлаш”.-Т.: Молия,2002 й.-Б-1.
4. Абдуллаев Ю, Қоралиев Т, Тошмuroдов Ш, Абдуллаева Ш. «Банк иши» Ўқув қўлланма. –Т. IQTISOD-MOLIYA, 2010 й.-Б-28.
5. Бердияров Б.Т. **Тижорат банклари актив операцияларининг даромадлилиги. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: 2002. – 21 б.**
6. Вахабов А.В., Ибрагимов А.К., Ризаев Н.К. Тижорат банклари ташқи аудитида халқаро молиявий ҳисобот стандартларини жорий этиш методикаси. Монография. Тошкент: молия, 2011. -188б.
7. Диана Мак Нотон, Дональд Дж. Карлсон, Клайтон Таусенд Дитд и др. Организация работы в банках: в 2–х томах. Том 2. Интерпривование финансовой отчетности. Пер. с англ. –М.: Финансы и статистика, 2002. –240 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100